

**Viloyat, tuman va shahar hokimliklarining investisiyalar, sanoat va savdo masalalari bo'yicha
kotibiyatlardagi vakant lavozim bo'yicha o'tkazilayotgan tanlov ishtirokchilari uchun**

SAVOLLAR

1. Investisiya atamasiga ta'rif bering.
2. Qulay investision muhit deganda nimani tushunasiz?
3. Investisiya dasturi nima?
4. Investisiya dasturini shakllantirish tartibini tushuntirib bering.
5. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya nima?
6. Investisiya faoliyati nima?
7. Investor tushunchasiga ta'rif bering.
8. Investisiya faoliyati ishtirokchilarini aytib bering.
9. Reinvestisiyalar nima?
10. Mo'ljallangan ob'yektiga ko'ra investisiyalarning turlarini sanab bering.
11. Kapital investisiyalar jumlasiga qanday investisiyalar kiradi?
12. Innovatsiya investisiyalari jumlasiga qanday investisiyalar kiradi?
13. Ijtimoiy investisiyalar jumlasiga qanday investisiyalar kiradi?
14. Investisiya resurslariga nimalar kiradi?
15. Investorning majburiyatlariga nimalar kiradi?
16. Investisiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qanday tarzda amalga oshiriladi?
17. Markazlashtirilgan investisiyalarga qanday investisiyalar kiradi?
18. Investisiyalarni himoya qilish to'g'risida gapirib bering.
19. Investisiyalarning qo'shimcha kafolatlari va himoya qilish choralari to'g'risida ma'lumot bering.
20. Investisiya faoliyatini cheklab qo'yish, to'xtatib turish yoki tugatish tartibini tushuntiring.
21. «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida investisiyalar yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan kamida necha foiz bo'lishini ta'minlash choralari ko'rilishi qayd etilgan?
22. Investisiya loyihasi nima?
23. Maxsus iqtisodiy zonaga ta'rif bering.
24. Maxsus iqtisodiy zonalar qanday turda tashkil etilishi mumkin?
25. Erkin iqtisodiy zona nima?
26. Maxsus ilmiy-texnologik zona nima?
27. Turistik-rekreasion zona nima?
28. Erkin savdo zonalari nima?

29. Maxsus sanoat zonasi nima?
30. Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida tushuncha bering.
31. Xorijiy investorlar uchun imtiyoz va preferensiyalar to'g'risida ma'lumot bering.
32. Davlat investisiya faoliyatini qanday yo'llar bilan rag'batlantiradi?
33. Chet el investisiyalari bo'yicha davlat majburiyatlari nimalardan iborat?
34. Ochiq eshiklar siyosati deganda nimani tushunasiz?
35. Sof investisiyalar tushunchasiga ta'rif bering.
36. Hududning investisiya salohiyatini baholab bering.
37. Inson kapitaliga investisiya deganda nimani tushunasiz?
38. Tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasiga ta'rif bering.
39. Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlarini sanab bering.
40. Eksport va import tushunchalariga ta'rif bering.
41. Erkin savdo nima?
42. Reeksport nima?
43. Tashqi savdo aylanmasi nima?
44. Antidemping bojlari nima?
45. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishning ahamiyati to'g'risida gapirib bering.
46. Hududda investisiya faoliyatini rivojlantirishning qanday imkoniyatlari mavjud?
47. Investisiya portfeli nima?
48. Investisiya loyihasining samarasini baholash bosqichlari to'g'risida gapirib bering.
49. Loyiha va investisiya loyihasi o'rtasidagi tafovutni tushuntirib bering.
50. Davlatning investisiya faoliyati to'g'risida gapirib bering.